

## GLOBALLASHUV JARAYONIDA TA'LIM-TARBIYA UYG'UNLIGINING AHAMIYATI

*Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi*

*Osiyo Xalqaro Universiteti "Tarix va filologiya"*

*kafedrası o'qituvchisi,*

*rahmonovasanoatshuhratqizi@oxu.uz*

**Tayanch tushunchalar:** Tarbiya insonni har tomonlama shaxs sifatida rivojlanishning amaliy jarayonlarini o'z ichiga oladigan uzoq muddat uzluksiz tizimli davom etadigan jarayondir.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ta'lim va tarbiya uyg'unligi, milliylik, axloqiy, jismoniy

"Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q. Qanchalik murakkab bo'lmasin, maktab ta'limida poydevorni bugundan mustahkam qo'yishimiz kerak. Chunki biz ko'p vaqt yo'qotganmiz".[1]

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim va tarbiya uyg'unligi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bunga sabab dunyo manzarasi, integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bunday jarayonlarda yoshlarning qalbida ong-u shuurida bo'shliq paydo bo'lishini oldini olish ularda mafkuraviy imunitetni shakllantirish oldimizda turgan eng asosiy burchlarimizdan biridir. Bu oliy maqsadni ro'yobga chiqarishda biz ta'lim tarbiya jarayonida uyg'unlikka erishishimiz tarbiya milliy tarbiya tushunchalarini oildan boshlab maktabgacha ta'lim muassalarida, umumiy o'rta ta'lim muassalarida shu bilan birga oliy ta'lim jarayonida joriy etish, bu orqali yoshlarda faol fuqarolik pazitsiyasini shakllantirish, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lgan fuqarolarni tarbiyalashdir. Tarbiyaning bosh maqsadi – har tomonlama barkamol, yetuk, vatani taraqqiyotiga, yurt istiqboliga o'z hissasini qo'shadigan shaxsni shakllantirish. Milliy tarbiyaning bosh maqsadi esa yuksak madaniyatli mutaxassisni ma'naviy – axloqiy tarbiyalash bo'lib bu maqsad orqali jamiyatning alohida olingan extiyojlarni aks ettirishini, uning mohiyatini, ideal talablarini, o'ziga xosligi va fazilatlarini, hayotiy munosabatini, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik rivojlanishini nazariy asoslaydi va umumlashtiradi. Milliy tarbiya jarayonining mohiyati haqida so'z boshlashdan oldin uning shakllanish jarayonlarini ko'rib chiqsak. milliy tarbiya bu nima? Tarbiya tushunchasining mohiyatini qisman bo'lsa ham ko'rib chiqdik xo'sh milliy tarbiya bu nima? Qachon paydo bo'ldi tarbiyadan farqi nimada degan savollar paydo bo'lishi tabiiydir. Milliylik bu har bir millatning elatning o'ziga xos va ungagina tegishli bo'lgan qadriyatlarini, ijtimoiy

hayoti,urf-odatlari,ananalari asosida yuzaga keladigan umuminsoniy qadriyatlarni shakllantiradigan omildir.”Milliy tarbiya”tushunchasi ko’p qirrali tushunchadir.

➤ Aniq bir maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy faoliyatning Milliy qadriyatlar asosida olib borilishi:

➤ Har bir xalqqa xos va mos bo’lgan umuminsoniy tarbiyaning betakror shakli;

➤ Xalq va uning madaniyatini saqlab qolish,tiklash va rivojlantirish(YUNESKO tamoyili) vositasi;

➤ Turli xalq va millatlar bolalarini har tomonlama rivojlantirish jarayoning xususiy,ma’naviy manbasi

➤ O’quvchilarni,mehnatsevarlik,vatanparvarlik, axloq go’zallik,iqtisod,ekologiya va boshqa yo’nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;

➤ Millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash va buning natijasida O’zbekistonda umumfuqaroviy totuvlikka erishishning insonparvarona yo’li va vositasi;

➤ Insoniyatni umumbashariy uyg’unlikka olib borishning amaliy-peadagogik yo’li;

Buyuk mutafakkir bobomiz Abdulla Avloniy o’zining “Turkiy Guliston yoxud axloq”asarida tarbiyaning inson hayotida uning shaxs bo’lib shaklanishida shu bilan birga millat ravnaqidagi o’rni haqida to’xtalib o’tib tarbiyani uchta kategoriyasi borligini sanab o’tadi:

1)Aqliy tarbiya

2) Axloqiy tarbiya

3) Jismoniy tarbiya

Qolgan barcha tarbiya kategoriyalari anashu uch asosiy kategoriya negizida shakllanadi.Aqliy tarbiya - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti tog’risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish)qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo’lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o’zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda yetakchi o’rin tutadi. Bilimlar tizimini ongli ravishda o’zlashtirish mantiqiy fikrlash, xotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko’maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- ilmiy bilimlarning muayyan hajmini shaxs tomonidan o’zlashtirilishiga erishish;

- bilishga bo’lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;

- iqtidor va aqliy qobiliyatni rivojlantirish;

- bilishga bo’lgan faollikni kuchaytirish;

- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy o’rta ta’lim va maxsus kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo’lgan ehtiyojni rivojlantirish.

- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Ta'lim va tarbiya haqidagi qarashlar islom ta'limotida va "Qur'on karim" "Hadisu shariflarda" ham o'z ifodasini topgan.

Muhammad alayhissalom o'z Hadislarida; "Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar. ... Ilm egallang. Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch, yolg'iz damlarda yo'ldosh baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg'uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir" deydi.

Shuningdek, Hadisi Sharifda "Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir" deydilar. Tarbiya kategoriyalari orqali insonda tabiat, din, mehnat qilishga oid qarashlar shakllanadi va insonning hayotda o'z o'rnini topishga amaliy ko'maklashadi.

### REFERENCES

1. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.

2. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.

3. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

4. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

5. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

6. Rahmonova, S. (2023). DYNAMICS AND MAIN DIRECTIONS OF SPIRITUAL AND CULTURAL REFORMS IMPLEMENTED IN UZBEKISTAN. *Modern Science and Research*, 2(10), 850-854.

7. Rahmonova, S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY-MADANIY ISLOHOTLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(10), 40-43.

8. Rahmonova, S. (2023). YUKSAK MA'NAVİYATLİ AVLOD-UCHİNCHİ RENESSANS BUNYODKORLARI. *Наука и технология в современном мире*, 2(3), 76-79.

9. Rahmonova, S. (2024). THE REFORMS IMPLEMENTED IN NEW UZBEKISTAN ARE THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE. *Modern Science and Research*, 3(2), 394-399.

10. Qizi, R. S. S., Shukhratovna, T. S., & Karamatovna, M. A. (2024). Implementation of Education and Protection of Children's Rights in the age of Technology. *SPAST Reports*, 1(7).

12. Rahmonova Sanoat Shuhrat qizi. (2024). THE ROLE OF SPIRITUALITY IN THE FORMATION OF HUMAN WORLD VIEW. МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА, 2(6), 135–144. извлечено от <https://universalpublishings.com/index.php/mpptp/article/view/6315>
13. Vahobovna, S. G. (2024). XX ASR BOSHLARIDA XITOYNING YAPON AGRESSIYASIGA QARSHI KURASHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 4(5), 264-273.
14. Srojeva, G. (2024). 1929-1932-YILLARDAGI JAHON IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA YAPONIYA. NRJ, 1(2), 118-128.
15. Vahobovna, S. G. (2024). Canada during the world economic crisis of 1929-1933. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI, 4(4), 48-54.
16. Srojeva, G. . (2024). ATTENTION PAID TO PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN NEW UZBEKISTAN. Modern Science and Research, 3(2), 258–266. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30750>
17. Srojeva, G. (2024). THE CANADIAN ECONOMY DURING THE GLOBAL ECONOMIC CRISIS. Modern Science and Research, 3(2), 57–63. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30678>
18. Vahobovna, S. G. (2024). Vahobovna, S. G. (2024). Role of Preschool Educational Institutions in Education of a Perfect Person. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 208-214.
18. Vahobovna, S. G. (2023). QUYI ZARAFSHON VOHASI TURIZM IMKONIYATLARI.
19. Srojeva, G. . (2024). STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PRESCHOOL EDUCATION AND TRAINING INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 3(2), 673–681. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29450>
20. Srojeva, G. (2024). INTERNATIONAL COOPERATION IN THE FIELD OF EDUCATION. Modern Science and Research, 3(2), 1041–1050. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29547>
21. Srojeva , G. . (2024). SOLUTIONS, RESULTS AND PROBLEMS OF REFORMS IN THE FIELD OF EDUCATION. Modern Science and Research, 3(1), 782–788.
22. Srojeva, G. (2024). EFFECTIVE FORMS OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION AND EDUCATIONAL WORK IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION. Modern Science and Research, 3(2), 247–253. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29010>
23. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani And Its Method. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 2(10), 39-40.